

## METAKOMMUNIKATIV FATIK VAZIFANI BAJARUVCHI BIRLIKLAR

Xolmatova Vazira Narzullayevna

Qarshi davlat texnika universiteti

“Xorijiy tillar” kafedrası dotsenti, Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: vazira8707@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20156017>

**Annotatsiya:** Kommunikativ operatorlar qatoriga performativ fe‘lli tuzilmalar, diqqatni jalb qilish uchun qo‘llaniladigan metakommunikativ birliklar, murojaat shaklidagi leksik-sintaktik qurilmalar kiradi. Ushbu guruhlardagi operatorlar ko‘p vazifali birliklar bo‘lib, ular ta‘kid pragmatik vazifasidan tashqari, ta‘kidni yumshatish vazifasini ham o‘taydilar. Bundan tashqari, ularga suhbatdoshlar o‘rtasida aloqa o‘rnatish, dialogik nutq ishtirokchilari rollarini belgilash kabi boshqa vazifalar ham xosdir.

**Kalit so‘zlar:** kommunikativ operatorlar, pragmalingsvistika, pragmatik vazifa, murojaat shaklidagi operatorlar, kommunikativ maqsad va gap shakliy tuzilishi, nutkiy aktlar.

Lisoniy hodisalarining kommunikativ-vazifaviy tadqiqi natijasida tilning muloqot muhitida fatik, ya‘ni aloqa o‘rnatish vazifasini ham bajarishi aniqlangan [Jacobson 1990: 355-356]. «Fatik vazifa» tushunchasi lug‘atda «tildan suhbatdoshlar o‘rtasida ruhiy aloqa o‘rnatish vositasi sifatida foydalanish» mazmunida tavsiflanadi [Жеребило 2009: 428]. G.G.Почепсов ushbu vazifani «fatik metakommunikatsiya» tushunchasi bilan bog‘lab, metakommunikatsiyani a) nutqiy aloqa o‘rnatilishi; b) ushbu aloqaning kechishi; v) aloqaning tugashi bosqichlaridan iborat, deb qaragan edi [Почепцов 1981: 52-53]. Metakommunikativ birliklarning diskurs tarkibida bajaradigan vazifasi o‘ziga xos bo‘lib, ular boshqa birliklardan farqli ravishda, hech qanday axborotni yetkazish qobiliyatiga ega emaslar. Bunday birliklar asosan tinglovchining diqqatini jalb qilish uchun xizmat qilib, ko‘pincha qolipli stereotip ko‘rinishida bo‘ladilar. Ammo metakommunikativ iboralarning suhbatdosh ruhiyatiga, idrokiga ta‘sir o‘tkazish va shu yo‘sinda uni nutqiy tuzilma mazmunini faol hamda aniq qabul qilishga undashini inkor qilib bo‘lmaydi. Demak, Listen, Look here, Attention kabi klishe-iboralar pragmatik mazmunni shakllantiruvchi elementlar sifatida talqin qilinishi lozim. Ushbu birliklar propozitsiyaning haqiqiylikini bevosita ta‘kidlamasalar-da, lekin adresatga yo‘naltirilganligi aniq ko‘rinib turadi. Qiyoslang:

Now look, child, you must come back and see me tomorrow [Murdoch, p. 334]; Listen, Caulfield. Are you calling me a crook? [Salinger, Catcher, p. 89].

Nutqiy aloqa vositalari umuman ta‘sir kuchiga ega va ular diqqatni jalb qilayotib, yetkazilayotgan axborot manbasiga ishonch muhitini yaratadilar [Schifrin 2003: 67]. Shunga nisbatan, ushbu shakllarni konstativ nutqiy akti pragmatik mazmunini ta‘kidlovchi vositalar ro‘yxatiga kiritish lozim, deb hisoblaymiz. Shuning bilan birgalikda, ushbu vositalarning norasmiy muloqot matnlarida, so‘zlovchining ijtimoiy va yosh jihatidan tinglovchiga nisbatan mavqeci balandroq bo‘lganida ko‘proq faollashuvini ham unutmash kerak.

Bu turdagi operatorlar ba‘zan alohida gap ko‘rinishida, mustaqil ravishda qo‘llanib, xabar yo‘nalishining ko‘rsatkichi xizmatini o‘taydi:

Listen. I’ll give you a ring after dinner [Salinger, Stories, p. 54].

Keyingi misolda soʻzlovchi, bir tomondan, tinglovchining diqqatini jalb qilishga intilib, ikkinchi tomondan, paydo boʻlgan imkoniyatdan foydalanib nutqining keyingi qismini oʻylab oladi:

Listen. I'm giving an elementary course in psychoanalysis [Salinger, Catcher, p. 148];  
Listen. Your advice is for the birds. I've been winding up with nothing listening to you [Susann, p. 123].

Bundan tashqari, ikkita propozitsiya oʻzaro qarama-qarshiligini kuchaytirish kontekstida ushbu operatorlar, but bogʻlovchisi yordamida, shaklan boshqa gap tarkibidan oʻrin egallashi mumkin:

- Why not?

- All right if you want to – but look here, Mason. Lola had plenty of property. She could do anything she wished [Gardner, p. 14].

Kuzatishlar guvohlik berishicha, Look, Look here, Listen kabi operatorlarning asosiy vazifasi adresatning diqqatini axborot mazmuniga jalb qilish bilan bogʻliq holda aloqa oʻrnatish, murojaat (apellyativ) vazifalarini bajarishdir. Nutqiy aktlar pragmatik mazmunini boyitish ham shu qatorga kiradi. Mazkur vositalardan adresatni xabarning muhimligiga ishonirish maqsadida foydalanish bilvosita hukmning aniqligini koʻrsatadi. Bunda fatik vazifaning susayishi kutilgan holdir. Umuman olganda, Look, Listen, Look here operatorlari soʻzlovchining ishonirish, isbotlash, eʼtiroz bildirish, hayron qoldirish, inkor qilish kabi harakatlari faollashuvi muhitini yaratadilar.

«Listen, I bought you a record», I told her [Salinger, Catcher, p. 163]; Look, Annie, if I had a son I'd want him to be just like Lyon [Susann, p. 65].

Aytilgan qatordagi operatorlar odatda quyidagi pragmatik vazifalarni bajaradi:

1) adresatni bildirilayotgan hukmning muhimligiga ishonirish:

Listen, a guy who is in love with you sticks with you [Susann, p. 179].

Shuningdek, Listen uzatilayotgan xabarni toʻgʻridan-toʻgʻri qabul qilib olishga undaydi:

You listen to me, Tony. It's no good for your career [Susann, p. 272]; Now, you just listen to me, Geoffrey. He's not old enough and bloody daft enough [Waterhouse, Hall, p. 276].

Ammo ushbu gapda ham listen, «meni eshit» mazmunidan tashqari, «mening aytayotganimga ishon» maʼnosida kuchaytirish harakatini ham ifodalaydi:

Mother, I'm telling you, listen to me. Rounre's the best thing I've ever had and I've tried hard for three years to keep hold of him [Wesker, Roots, p. 183].

Adresatni ishonirish vazifasi voqelanishi, odatda, yangi fakt keltirilishi bilan bogʻliq va bunda axborotning yangiligi tinglovchiga maʼlum darajada taʼsir koʻrsatadi:

2) adresatni fikridan qaytarish vazifasi:

«Forget it», she said with determination. Now look, you and George have had words, but he's not a bad sort [Susann, p. 467];

3) soʻzlovchi uchun yolgʻon boʻlib koʻrinayotgan presuppozitsiyaning qatʼiyan inkor etilishi:

«Listen, Mr. Killjoy, I'm having a perfectly marvelous time» [Susann, p. 340] (though you think I'm not).

- «I want someone who is more than a secretary». Her smile vanished. «I don't think you understand...» Dammit. He hadn't meant anything like that. «Look, Miss Welles, being more

than a secretary means not sticking to the usual nine-to-five routine» [Susann, p.18] (though you think something different);

4) adresat fikri bilan tamoman kelishmaslik, rozi emaslik:

- I wanted to get some information about someone who parked an automobile, here for a few minutes.

- Look, buddy, in order to keep this lot running, we have to handle hundreds of automobiles in the course of a day [Gardner, p. 34];

5) suhbatdoshi taklif qilgan biror-bir harakatni bajarishdan tamoman bosh tortish:

Look, I can't meet you. Mary Jane is here [Salinger, p. 51]; Well, look, Mr. Crawffle, I'm not in the habit of making engagements on the middle of the night [Salinger, Catcher, p. 65]; «I certainly should know my own husband», Gertie said in mock indignation. «Now look», Fleetwood said, suddenly suspicious. «I am not going through any marriage ceremonies with any woman» [Gardner, p. 102];

6) qat'iy va'da berish:

«Look here», I'll come down- that is, if I can see my way - and I'll stay till these fellows arrive [Christie, Evans, p.10];

7) ta'kidni baholash, ayniqsa so'zlovchi va tinglovchining bahosi mos kelmaganida:

«Look here, Frankie», he said, «Badger's one of the best one of the very best» [Christie, Evans, p.17].

Mazkur operatorlar, bundan tashqari, qarama-qarshi vazifani ham bajarishlari, ya'ni ta'kidni kuchsizlantirishlari mumkin. Bunda sanab o'tilgan birliklar hurmat kategoriyasini voqelantiruvchi vositaga aylanadilar:

«Listen», he said, «I'm afraid I have to cancel the dinner tonight. My wife says we're invited out» [Shaw, Nightwork, p. 93]; Now, look, Marion, I don't feel well [Donleavy, p. 115].

Xullas, Listen, Look, Look here operatorlari nutqiy aktlar pragmatik mazmunini ta'kidlovchi vositalardan hisoblanadi. Ushbu birliklar turli vazifalarni bajarish xususiyatiga ega va ular muloqot jarayonida, fatik (aloqa o'rnatish) vazifasidan tashqari, ta'kidlash hamda ta'kidni susaytirish ma'nolarini ham ifodalaydilar. Ular odatda gapning boshlang'ich o'rnidan joy oladilar. Mazkur birliklarning so'z-gap shaklida nutqiy tuzilmaning boshqa qismidan ajralgan holda kelishlari ham kuzatiladi. Nutqiy tuzilma tarkibida bu guruhdagi operatorlar pragmatik mazmunni shakllantiruvchi boshqa vositalar bilan munosabatga kirishadilar va bunda bir xil yoki har xil vazifa bajarish imkoniyati namoyon bo'ladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Jacobson R. Linguistics and Poetics. In: Style in Language. – Cambridge, Mass, 1990. – P. 350-377.
2. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. – Назрань: Пилигрим, 2009. – 486 с.
3. Почепцов Г.Г. Фатическая коммуникация // Семантика и прагматика синтаксических единств. – Калинин, 1981. – С.52-59.
4. Murdoch. I. The Book and the Brotherhood. – Penguin Books, N.Y., 1989. – 607 p.
5. Salinger.J.D. The Catcher in the Rye. – Bantam Books Ltd.,L., 1991. – 192 p.
6. Salinger. J.D. Stories. – М.: Progress, 1982. – 437 p.
7. Susann. J. Valley of the dolls. – Brandon Ltd., Tip-tree, Essex, 1995. – 510 p.

8. Gardner. E.S. The Case of the Lazy Lover. – Pan Books, L., 1991. – 189 p.
9. Waterhouse K. & Hall. W. Billy Liar // Modern English Plays. – M.: Progress Publ., 1986, – P.233-335.
10. Wesker, A. Roots // Modern English Plays. – M.: Progress Publ., 1992. – P. 143-232.
11. Shaw. I. Nightwork. – Pan Books Ltd., L., 1989. – 346 p.

